



## JAHON ADABIYOTIDA AMIR TEMUR OBRAZINING O'RGANILISHI

**Orazbaeva Asal**

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti 2-bosqich talabasi  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15029890>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 05-Mart 2025 yil  
Ma'qullandi: 10- Mart 2025 yil  
Nashr qilindi: 15- Mart 2025 yil

### KEY WORDS

*timsol, tahlil, trilogiya, tragediya, afsonaviy qahramon, epizod*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada tariximiz maydonida o'chmas iz qoldirgan sohibqiron Amir Temur siymosi tasvirlangan asarlar haqida fikr yuritilgan. Tadqiqot obyekti sifatida rus yozuvchi S.Borodinning "Samarqand osmonida yulduzlar" trilogiyasi va ingliz yozuvchisi K.Morloning "Buyuk Temur" tragediyasi olingan.*

Tariximiz sahnasida mustahkam o'rin ilgan siymolardan biri Amir Temur hayoti haqidagi asarlarning o'zi anchagina. Bu an'ana sohibqiron tirikligidayoq boshlangan bo'lib, Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma", Hofiz Abruning "Zubdat at Tavorix", Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Fasiq Ahmad Havafiyning "Mujmali Fasiqiy", Abdurazzoq Samarqandiyning "Matla' as Sa'diy" Ibn Arabshohning "Ajoyib almaqdur" kabi asarlarini atab o'tish joiz. Rus yozuvchisi S.Borodinning "Samarqand osmonida yulduzlar" trilogiyasi ham Temur siymosini aks ettirgan nasriy asarlar sirasiga kiradi. "Samarqand osmonida yulduzlar" asari uch kitobdan;

- 1."Oqsoq Temur"
2. "Safar gulxanlari"

3. "Yildirim Boyazid" romanlaridan iborat. Biz asosan asarning uchinchi "Yildirim Boyazid" kitobi asosida so'z yuritimiz.

"Yildirim Boyazid" romanining annotatsiyasida quyidagilarni o'qiyimiz: "Yildirim Boyazid" romani "Samarqand osmonida yulduzlar" epopeyasining uchinchi kitobidir. Bunda yozuvchi S.Borodin Temurning Sharqiy Turkiya va Suriyaga qilgan yurishini, Halab, Damashq shaharlarini qarshilik ko'rsatgan shahar va qal'alarini yer bilan yakson qilib, xalqlarni talaganini, ularni qilichdan o'tkazganligini, bo'ysundirilgan xalqlarning istilochilarga qarshi kurashini haqqoniy ravishda ko'rsatadi". [1]

Roman voqealarini va asar markazida turgan Temur timsolini tahlil qilish orqali "haqqoniyat"ni anglaymiz. "Samarqand osmonida yulduzlar"da Temur mohir lashkarboshi, harbiy taktika va strategiyaning yangi-yangi turlarini o'ylab topuvchi va qo'llovchi sifatida namoyon bo'ladi. Demak, adib Temurning lashkarboshilik qobiliyatini tan oladi. Masalan:

- Boyazidning askarlari ko'pligidan qo'rqdingizmi? Ajabo, men aqlim bilan emas, askarlarim ko'p bo'lgani uchungina zafar qozonarmidim? Eng kuchli dushmanlar bilan jang qilib g'alaba qilgan sizlar emasmidingiz? Qani o'sha mardligingiz, matonatingiz? Axir dushmandan oldin hujum qilmoq uchun biz haftalab uxlamas edik-ku! Shu bilan biz

yengardik... Odam o'z kuchiga ishonmasa har vaqt halokatga uchraydi. Agar oxirgi soatgacha lashkar o'z kuchiga ishonsa, oxirgi soatda zafar qozonadi, - degan Temurning faqat haqiqiy lashkarboshilargagina xos nutqi fikrimiz dalilidir.

“Yildirim Boyazid” romanining markazida Temur bilan yonma-yon yana bir timsoli yaratildi. Bu Turk hukmronligi tarixida qaysar nomi bilan atalgan Sulton Yildirim Boyazid timsolidir. Asarda tasvirlangan voqea-hodisalardan yozuvchining xuddi shu timsolga nisbatan qandaydir xayrixohlik ya'ni simpatiya bilan munosabat bildirganligini ilg'aysiz. Masalan: “Temur Sivasni buzib tashlagan yili Sulton Boyazid ko'p shaharlarda imorat qurdirdi, deb yozuvchi Boyazid bunyod qildirgan bir necha imoratlarni sanab o'tadi.

Ingliz adabiyotiga ilk bor Amir Temur obrazini olib kirgan shaxs “University wits” (Universitet donolari)ga mansub Kristafor Marlo “Tamburlaine the great” (Buyuk Temur) tragediyasi orqali “Ingliz teatrining otasi” (father of English theatre) degan sharaflı nomga sazovor bo'lib, ingliz dramaturgiyasida “dahshatli (qudratli) fojea” (powerful tragedy) janriga ham asos soldi. Uning bosh qahramoni Tamburlaine inglizlarda qirollar saroyidagi yuksak lavozim egasiga nisbatan aytilgan “Chamberlain” so'zining talaffuz etilishiga qulay shakli ham bo'lishi mumkin degan qarashlar mavjud. Ikki qismdan iborat ushbu tragediyani Salohiddin Toshkandiyning “Temurnoma” qissasi bilan qiyosiy o'rgangan adabiyotshunos Olimjon Dadaboyevning qo'yidagi qarashlari ahamiyatli: K.Marlo Amir Temurni afsonaviy qahramon tarzida tasvirlab, uni baland bo'lyi, tik qomatli deb tasvirlaydi: uning yelkalari keng bo'lib, go'yo butun dunyoni ko'tarib tura oladiganday. Uning uzun qo'llari va kuchli mushaklari uning qudratidan darak berib, ko'zlari esa o'tkir va sehrli. Bularning hammasi uning qudratidan va dunyo hukmdori bo'lishidan darak beradi. Ushbu asardagi Temurning uch yuz kishilik askari bilan mingdan ortiq qo'shinga “dars” berib qo'yishi va dushmani qochishga majbur qilish epizodi o'zbek yozuvchilaridan Muhammad Alining “Ulug' saltanat” teralogiyasi hamda tarixchi adiblar Nizomiddin Shomiy va Sharafiddin Ali Yazdiy asarlaridagi tarixiy qaydlar bilan mushtarak [2]. Ingliz adabiyotida yozilgan ushbu Temur haqidagi K.Marloning ilk asari bosh qahramonining Amir Temur shaxsidan va dramadagi sarguzasht voqealarning turkiy manbalar orasida eng ishonchli deb tan olingan N.Shomiyning “Zafarnoma”, “Temur Tuzuklari”, G'iyosiddin Alining “Hindistonga yurish kundaligi” kabi tarixiy asarlardan farqli jihatlari ham ahamiyatlidir. Bu asarlarning Evropa tillariga, jumladan Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”si 1722 yilda Petey de La Krua tomonidan, Ibn Arabshoh asari 1658 yilda P.Votye tomonidan fransuz tiliga K.Marlo o'limidan yarim asr o'tgandan keyingina tarjima qilingan. Shu bois, K.Marlo asaridagi vaxshiy va daxriy Temur va tarixiy shaxs sifatida o'tmish nambalarida o'z adolati va turkiy ellarni o'z yurtida bek qilish maqsadi bilan yashagan sarkarda Amir Sohibqiron o'rtasida o'xshashlik bo'lmasligi tabiiy. Shuningdek, nafaqat Amir Temur shaxsi balki uning yurishlari haqidagi ma'lumotlarda ham muallifning keng to'qimalardan foydalanganini ko'rishimiz mumkin.

K.Marlo o'z dramasi yozishda foydalangan asarlar tarixiy hujjatlar emas balki, qahramonlik romanlari ekanligi hisobga olsak, u bosib olgan o'lkalar nomlarining noto'g'ri keltirilishiga shubha qilmasa ham bulur. Chunki, bu asarlardagi sarguzashtlar tarixiy voqealar emas, “qahramonlik fantaziyalari” edi. Demak, ushbu asardagi Temur obrazi va voqealiklar tarixiy shaxs bo'lgan Amir Temur shaxsidan tubdan farq qiladi. Amir Temur hayoti va faoliyatini o'zida mujassam etgan asarlar yoza olish, Temur faoliyati mohiyatini, uning shaxs sifatidagi ruhiyatini tasvirlash uchun, o'sha davrining muhiti, tarixiy manbalari, ilm-fan, tarix

manbalari tasdiqlab bergan dalillarni chuqur o'rganish tarixiy asarlar yozajak adib oldiga qo'yiladigan talablaridan sanaladi [3].

Xulosa qilib aytish mumkinki, Amir Temurning dunyoni zabt etgan va o'z janglarida mag'lubiyatga uchramagan jahongir ekanligi haqidagi afsonay-u rivoyatlar, uning tarixiy shaxs sifatida va badiiy qahramon tarzida Sharq va G'arbliklarning g'ayritabiiy voqeiliklarni turli talqinlarda o'z ijodlariga singdirib yuborish sabablari haqida asoslar berilgan. Tarixiy shaxsning asarga ko'chgan obrazi va tarixiy voqealarning o'rtasidagi mutanosiblikkina uni tarixiy asar yoki to'qima badiiy asar ekanligini namoyon qilib beradigan omillardan biridir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.S.Borodin Samarqand osmonida yulduzlar G'.G'ulom nashriyoti. Toshkent, 1974
- 2.O.Dadajonov. G'arb va sharq adabiy kontekstida Amir Temur shaxsi talqini. Filol.fan.fal.dok.diss.2019.16 bet.
3. Z.R.Yaxshiyeva. Historical reality and its artistic interpretation. neuroquantoiology november 2022.Volume 20 | issue 15 | page 2510-2513.

